

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING QO'LLANILISHI VA OBYEKTIV ZARURIYATI

Fayziyeva Shirin Shodmonovna

Qarshi davlat texnika universiteti

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.n.

Annotatsiya. *Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat turlari, zamonaviy texnologiyalar va xizmat ko'rsatishning hozirgi holati, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda ushbu choralar natijasida erishilgan yutuqlar har tomonlama tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar. *xizmat ko'rsatish, innovatsiya, konsalting xizmatlar, g'oya, tovar, texnologiya, yangilik, ijodkorlik, iqtisodiy samara, samaradorlik, samaradorlikni baholash, raqabatbardoshlik, mexanizm.*

Аннотация. *В статье дан глубокий анализ основных направлений государственной поддержки инновационной деятельности в сфере услуг. Дается комплексный анализ видов инновационной деятельности, реализуемых в сфере услуг в Республике Узбекистан, современных технологий и текущего состояния сферы услуг, мер государственной поддержки, а также достижений, достигнутых в результате реализации этих мер.*

Ключевые слова. *услуга, инновация, консалтинговые услуги, идея, продукт, технология, новизна, креативность, экономическая эффективность, результативность, оценка эффективности, конкурентоспособность, механизм.*

Abstract. *The article provides a deep analysis of the main directions of state support for innovative activities in the service sector. A comprehensive analysis of the types of innovative activities implemented in the service sector in the Republic of Uzbekistan, modern technologies and the current state of the service sector, government support measures, as well as achievements achieved as a result of the implementation of these measures is provided.*

Keywords. *service, innovation, consulting services, idea, product, technology, novelty, creativity, economic efficiency, effectiveness, efficiency assessment, competitiveness, mechanism.*

O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi xizmatlar sohasining ahamiyati juda katta va dolzarbdir. Shunday ekan, bu eng avvalo ishlab chiqarishning murakkablashishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi, jamiyat hayotiga yangiliklar kirituvchi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Bularning barchasi axborot, moliyaviy, transport, konsalting xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlar mavjudligini taqozo etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi

«Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5113-sonli qarorining qabul qilinishi sohaning bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda to'tgan o'rni nihoyatda muhimligini ko'rsatib bermoqda. Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi iste'molchilar tomonidan innovatsiyalarga, milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnik salohiyati rivojlanishi, tavakkal innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi venchur firma va investorlar faoliyatiga bog'liq.

Innovatsion tadbirkorlik - g'oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali yangi tovar va texnologiyalar yaratish jarayoni hisoblanadi. Odatda, tadbirkorlik faoliyati zahirida yangi ehtiyojlarni qondirishga imkon beruvchi, yangi bozorni barpo etish, mahsulot e'ki xizmatlar sohasiga yangilik kiritishdir. Innovatsiyalar – tadbirkorlikning maxsus quroli bo'lib, bunda innovatsiyalar o'z holicha emas, balki yangiliklarni yo'naltirilgan tashkiliy izlash, ularga tadbirkorlik tarkiblarining muntazam qaratilganligidir. Tadbirkorlar fikrlashning innovatsion turini farqlaydi, innovatsion faoliyat esa o'zida tadbirkorlikning alohida qurolini aks ettiradi. Shunday qilib, tadbirkor-novatorning vazifasi - ixtirolarni tatbiq etish bilan birga ishlab chiqarishni isloh qilishdir, yanada kengroq ma'noda yangi texnologik imkoniyatlarni qo'llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish e'ki tayar mahsulot bozori ochilishi e'ki yangi manbaning ochilishi evaziga eski mahsulotlarni yangi uslubda ishlab chiqarishdan iborat.

Quyidagi 1-jadvalda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan.

1.1-jadval

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar¹

Omillar guruhi	Omillar
Iqtisodiy, texnologik	Moliyaviy, moddiy-texnika vositalari zaxirasi, ilg'or texnologiyalar; zarur xo'jalik va ilmiy-texnik infratuzilma, innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi davlat dasturi; innovatsion faoliyat uchun moddiy rag'batlantirish; innovatsiyalarni tatbiq etish va ko'paytirishning maqsadga muvofiqligini eksperimental tekshiruv, tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytirish uchun yangilikning raqobatbardoshligini tekshirish
Siyosiy, huquqiy	Innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonunchilik choralari, innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi
Boshqaruv-tashkilot	Tashkiliy tarkiblarning egiluvchanligi, boshqaruvning demokratik uslubi, axborotning gorizontaal yo'nalishi, ustuvorligi o'z-o'zini rejalashtirish, tuzatishlar kiritish, nomarkazlashtirish, avtonomiya, muammoli, maqsadli guruhlarini shakllantirish, reinjining
Ijtimoiy-psixologik va madaniy	Ma'naviy rag'batlantirish, jamoatchilikda tan olinish, o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatini ta'minlash, ijodiy mehnat erkinligi. Mehnat jamoasida me'yoriy ruhiy muhit

¹ O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonuni. 2020 yil 24 iyul


Innovatsion tadbirkorlik - yangilik yaratishning alohida ijodkorlik jarayonidir, xo‘jalik jarayoni, uning zamirida muntazam yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga yo‘naltirilganlik etadi. Bu mavjud loyihani takomillashtirish yoki yangisini amalga oshirishdagi tavakkalchilikni, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy, ma’naviy va ijtimoiy javobgarlikni tadbirkor o‘z zimmasiga olishga tayyorligi bilan bog‘liq. Innovatsion tadbirkorlik jarayonida o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovatsiyalar orqali yangilik kiritish amaliy foydalanish orqali (mahsulot va xizmatlar, oliy mahsulotlar) va texnologiyalar vositasida ishlab chiqariladi. Innovatsiya yoki yangilik kiritish yangi jarayon, yangi vositani mahsulot jarayonini (texnik, iqtisodiy, tashkiliy, madaniy va b.) yaratish va foydalanish. Faoliyat vositalari mahsulot va uslublarini takomillashtiruvchi radikal yangilik va yangiliklarni ajratadi.

Innovatsion tadbirkorlik - bu yangi narsalarni yaratishning maxsus innovatsion jarayoni, doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni izlashga, innovatsiyalarga e'tibor berishga asoslangan boshqaruv jarayoni.

Xizmat ko‘rsatishda innovatsion tadbirkorlikning asosiy turlari quyidagilardan iborat:



1-rasm. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy turlari²




² Djalilova N.M. “Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jumali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057)

2-rasm. Innovatsion tadbirkorlik bosqichlari³

Innovatsion tadbirkorlikning aynan uch asosiy turi mavjud bo'lib, quyidagilarga qaratilgan: – mahsulotlarning innovatsiyalari; – texnologiya innovatsiyalari; – ijtimoiy innovatsiyalar. Innovatsion tadbirkorlikning birinchi turi mos ravishda korxonaning sotish salohiyatini yangilash, mo'ljallangan jarayonni, o'z navbatida, olinadigan foyda hajmini ko'paytirish, bozordagi ulushining kengaytirilishi, mijozlarni ushlab turish, mustaqil holatni mustahkamlash, nufuzini oshirish, yangi ish joylarini yaratishga qaratilgan.

Texnologik innovatsiyalar - energiya, ishlab chiqarish salohiyatini yangilash jarayoni bo'lib, tejash va mehnat unumdorligini oshirishga va energiya xomashəsi va boshqa resurslarni oshirishga qaratilgan, bu korxona foyda hajmini oshirishga imkon beradi. Texnika xavfsizligini takomillashtirish, atrofmuhitni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish, firma ichki axborot tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy innovatsiyalar korxonaning ijtimoiy muhitini rejali yaxshilash jarayonidir. Bu turdagi innovatsiyani tatbiq etish bozorda ishchi kuchi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, tashkilot personalini qo'yilgan maqsad sari safarbar etadi, korxonaning ijtimoiy majburiyatlarga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonni tashkil etish usuli asosida korxonada innovatsion tadbirkorlikning uch modelini alohida ko'rsatish mumkin:



3-rasm. Korxonalarda innovatsion tadbirkorlikning mavjud uch modeli⁴

³ O'sha manba

⁴ Yo'ldoshev N.Q., Akbarxodjaeva Z.Z. "Innovatsion menejment" darsligi, Toshkent, Iqtisodiyot, 2019

1) ichki tashkilotchilik asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda innovatsiya firma ichida uning maxsus bo'linmalari tomonidan innovatsion loyiha bo'yicha ularning rejalashtirish va nazorat asosida o'zaro harakatida yaratiladi.

2) shartnomalar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda va/ëki o'zlashtirishga buyurtma, innovatsiya tarafdor tashkilotlar o'rtasida joylashtiriladi.

3) venchurlar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda firma innovatsion loyihaning tatbiqi uchun qo'shimcha tomonlarning mablag'larini jalb etuvchi shu'ba venchurlik firmalarini ta'sis etadi. Ko'p hollarda innovatsion tadbirkorlikning ikkinchi modeli foydalaniladi, ya'ni korxona yangiliklarni ishlab chiqishga buyurtma bermaydi, balki ularni o'z kuchi bilan o'zlashtiradi. Innovatsion tadbirkorlikning barcha turlari asosida mahsulot (tovar, xizmat)larning yangi turlarini tayèrlash, buyumlar yaratish, boyliklarni yaxshiliklarga yaratish va o'zlashtirish ètadi. Bunday tadbirkorlikning asosiy va muhim qismi kelgusida iste'molchi va xaridorlarga yetkazib beriladigan ilmiytexnik mahsulot, tovar, ish, axborot, intellektual boylik yaratish va ishlab chiqarishdir.

Silikon vodiysi Kaliforniyadagi San-Fransisko ko'rfazining janubiy qismi bo'lib, u erda ko'plab startaplar va xalqaro yuqori texnologiyali korporatsiyalar, jumladan Apple, Facebook va Google shtab-kvartiralari joylashgan. Yangi texnologiyalarni ishlab chiquvchi tashkilotlar Palo Altodagi Stenford universiteti atrofida to'plangan. Mountain Viewda Kompyuter tarixi muzeyi va Ames tadqiqot markazi (NASA bo'limi), San-Xoseda esa texnologiya innovatsiyalar muzeyi joylashgan.

Silikon vodiysi - Kaliforniya shtatidagi (AQSh) San-Fransiskoning konsolidatsiyalangan metropolitan statistik hududining janubi-g'arbiy qismi (aglomeratsiya-konurbatsiya), yuqori texnologiyali kompaniyalarning yuqori zichligi bilan ajralib turadi. kompyuterlar va ularning komponentlarini, ayniqsa, mikroprotsessornlarni, shuningdek, dasturiy ta'minot, mobil aloqa vositalari, biotexnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish bilan. Ushbu texnologik markazning paydo bo'lishi va rivojlanishi etakchi universitetlarning, yirik shaharlarning bir soatdan kamroq masofada to'planishi, yangi kompaniyalarni moliyalashtirish manbalari, shuningdek, O'rta er dengizi tipidagi iqlim bilan bog'liq.

Boshqa mamlakatlarda bir qator boshqa innovatsion klasterlar yaratilganiga qaramay, AQSH Silikon vodiysi shu turdagi yetakchi markaz bo'lib qolmoqda, xususan, shtatlarda amalga oshirilgan venchur kapital qo'yilmalarining uchdan bir qismini oladi

Grant- fond davlat agentligi dasturi tomonidan tashkilot jismoniy shaxsga innovatsion loyihani amalga oshirish uchun berilgan mablag'.

Ilmiy-texnik mahsulot ishlab chiqarishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamlovchi mahsulotlarga, yarimfabrikatlarga, ya'ni tayèr tarkibiy qismlarga ehtiëj yuzaga kelishi mumkin. Zarur materiallar, xomashë va jamlovchi mahsulotlarni (M) korxona material soni va uning bahosidan kelib chiqqan holda, ularning qiymatini to'lab, aylanma mablag' egalaridan sotib oladi. Ilmiy-texnik mahsulot (tovar, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun korxonaga, shuningdek, inshoot ko'rinishida asosiy vositalar, bino, maxsus asbob-

uskuna, asbob va boshqalar zarur. Tashkilot ularni sotib olishi èki asosiy vosita egalaridan ma'lum vaqtga ijaraga olishi mumkin. Innovatsion faoliyatga zarur bo'lgan narsalar uchun mulkdorlarga pul miqdorini to'lashi lozim, pul miqdori asosiy vositalarning turi, soni va bahosiga bog'liq. Asosiy vositalarning ijarasida to'lov uning ishlatilish muddatiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi»da 2022-yil 27- maydagi PF-104-sonli qarorida «2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga o'sdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022-yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo'shimcha 1,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini ochib beradi»⁵, deb ta'kidlab o'tdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, uning tarmoq va hududlar bo'yicha muvozanatli rivojlanishini ta'minlash bo'yicha qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2021–2023 yillarda mazkur sohaning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan:

- xizmatlar sektorini iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylantirish va 2023 yilga qadar xizmatlar hajmini ikki barobar oshirish;
- “bir darcha” tamoyiliga asoslangan kompleks xizmatlar tizimini joriy etish orqali aholiga biznes-rejalar, kasbga tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlashgacha bo'lgan to'liq ko'makni taqdim etish;
- xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasini baholash tizimini joriy etish orqali davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;
- byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, ayniqsa qishloq joylarda transport, bank, turizm va savdo xizmatlari qamrovini kengaytirish;
- ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida sifatni oshirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish.

Mazkur maqsadlarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan tijorat banklariga 150 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyasi ajratildi. Ushbu kreditlar 7 yil muddatga, 3 yil imtiyozli davr bilan, banklarga 10% va mijozlarga 14% stavkada taqdim etiladi. Bundan tashqari, qaytarilgan mablag'lar hisobidan yangi loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, “O'zmilliybank” ATB xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda 200 million AQSH dollari miqdorida mablag' jalb qilib, 28 ta shaharda transport, turizm, savdo va tibbiyot obyektlarini barpo etish loyihalarini moliyalashtirishni rejalashtirmoqda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi”da 2022 yil 27 maydagi PF -104-sonli qarori

2020-yil 24-iyulda qabul qilingan «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-630) innovatsion jarayonlarning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Unda innovatsiya tushunchasi, faoliyat prinsiplari, ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek xatarlarni baholash va boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Qonun yoshlar, tadbirkorlar, olimlar va NNTlar uchun barqaror huquqiy zamin yaratib berdi.

Ijtimoiy sohadagi yirik islohotlar ham xizmatlar sektorining innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirdi. Xususan:

- sog‘liqni saqlash tizimini kuchaytirish;
- ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish;
- arzon uy-joylar qurilishini kengaytirish;
- ta‘lim tizimida 11 yillik o‘rta ta‘limni qayta joriy qilish;
- oliy ta‘limga qabulda shaffoflikni ta‘minlash va kvotalarni oshirish;
- oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni xalqaro standartlarga moslashtirish.

Shuningdek, 2018-yil 5-maydagi Prezident qarori (PQ-3697) faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim huquqiy poydevor yaratdi.

Vaziyat tahlili mamlakatda innovatsion faoliyatga to‘siq bo‘layotgan qator muammolarni aniqladi:

-hududiy innovatsion salohiyatni tahlil qilish va startaplar bazasini shakllantirish amaliyoti yetarli emas

-innovatsion loyihalarni investitsiyalash va iqtidorli tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash ishlari sust

-hududlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda yetarli bilim va ko‘nikmaga ega tadbirkorlar soni kam;

-innovatsion ishlanmalar bo‘yicha yagona ma‘lumotlar bazasi va tajriba almashinuvi tizimi rivojlanmagan

-innovatsion bozorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmagan, bozor talablariga moslashtirish tizimi zaif

-yosh mutaxassislar va bitiruvchilarni innovatsion loyihalarga jalb etish, biznes-inkubatorlar tashkil etish ishlari yetarli emas.

Bundan tashqari, aholi orasida innovatsion tafakkurni ommalashtirish, yangi mahsulot va xizmatlarni ilgari surishda texnik va psixologik to‘siqlar mavjud.

Xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni ilmiy jihatdan asoslashda meyoriy-huquqiy hujjatlar va olimlar qarashlarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Ular soha rivoji uchun nafaqat nazariy asos, balki amaliy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-sonli Qonuni. 2020 yil 24 iyul

2. «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi qarori. / Xalq so‘zi 37-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-157 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral
6. Aliev Y.E. «Innovatsion iqtisodiyot»o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, Iqtisodiyot, 2019.
7. Quvondiqov SH.O. «Xizmat sohalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari» mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati. Samarqand 2022 y